FARG‘ONA VILOYATI MARG‘ILON SHAHAR HOKIMINING

Q A R O R I

2024 - yil 5 - yanvar 3-11-168-Q/24 Marg‘ilon shahar hokimligi

Marg‘ilon shahar “Sahovat va ko‘mak” jamg‘armasiga tushgan mablag‘lari hisobidan yordam ko‘rsatish to‘g‘risida

O‘zbeksiton Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 17-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga ijtimoiy ahvoli va turmush sharoyiti og‘ir oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini soddalashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 547-sonli qaroriga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbeksiton Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 17-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga ijtimoiy ahvoli va turmush sharoyiti og‘ir oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini soddalashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 547-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. “Mahalla” xayriya jamoat fondi Marg‘ilon shahar bo‘linmasi raisi (Z.Mamadjanov), ATB Xalq banki rahbariga:

- Shaharda istiqomat qilayotgan ehtiyojmand fuqarolar tomonidan kelib tushgan murojaatlarga asosan, ushbu fuqarolarning ijtimoiy–moddiy ahvolini inobatga olib dori-darmon, kommunal to‘lovlardan qarzdorligi, tibbiy muolajalar va boshqa ehtiyojlarini inobatga olib jamg‘arma hisob-raqamidagi qoldiq mablag‘ hajmidan kelib chiqqan holda ushbu fuqarolarga

bir martalik moddiy yordam Axunzadayeva Zuxra Ilramdjonovnaga 8 800 000 (sakkiz million sakkiz yuz ming) so‘m, Axunzadayeva Fatima Ilramdjonovnaga 8 800 000 (sakkiz million sakkiz yuz ming) so‘m, Axunzadayeva Muxayoxon Ilramdjonovnaga 8 800 000 (sakkiz million sakkiz yuz ming) so‘m mablag‘ ajratilsin.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.04.2022-yil PQ-198-qarorining 2-bandi a)-qismiga asosan, Xalq bankining sayyor kassasidan bir martalik moddiy yordam pullarini fuqarolarga naqd pulda yetkazib berish xizmatlari uchun 1 (bir) foiz miqdorda bankka xizmat haqi to‘lab berish belgilanganligi hamda sarflanayotgan mablag‘lar “Sahovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ta’minlaishi tasdiqlansin.

3. Ushbu qarorning ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Shahar hokimining 1-o'rinbosari **O.O.Xomidov.**